

YAPON XALQ ERTAGI “URASHIMA TARO” – EZGLIK, VAQT VA HAYOT SABOQLARI HAQIDAGI HIKOYA

Turdimurotova Mavluda Musurmonqul qizi
O'zDJTU, Sharq filologiyasi fakulteti, 3-kurs talabasi

Annotatsiya : *Har bir xalqning o'ziga xos ertak va afsonalari bo'ladi. Bu ertaklar orqali xalqning dunyoqarashi, hayotga munosabati, yaxshilik va yomonlik haqidagi tushunchalari aks etadi. Yapon xalqining mashhur ertaklaridan biri bo'lgan “Urashima Taro” hikoyasi ham shunday chuqur ma'noga ega asarlardan biridir. Ushbu hikoya asrlar davomida avloddan-avlodga o'tib kelmoqda va bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.*

“Urashima Taro” hikoyasi insoniy fazilatlar — mehr-shafqat, saxovat, ota-onaga hurmat, vaqtning qadrini bilish va har bir amalning oqibati borligi haqida hikoya qiladi. Asarda nafaqat qiziqarli voqealar, balki chuqur falsafiy ma'no ham mujassam. Ayniqsa, inson hayotidagi vaqt tushunchasi, insonning o'z tanlovi uchun javobgarligi, yaxshilikning mukofoti va uning oqibatlari juda ta'sirli tarzda tasvirlangan. Ushbu maqolada “Urashima Taro” hikoyasining mazmuni keng yoritilib, uning tarbiyaviy ahamiyati va hayotiy saboqlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Hikoya, afsona, asar, ertak, inson, xalq, vaqt, hayot

Аннотация: *У каждого народа есть свои сказки и легенды. Эти сказки отражают мировоззрение людей, их отношение к жизни и понятию добра и зла. История «Урасима Таро», одна из известных японских народных сказок, является одним из таких произведений с глубоким смыслом. Эта история передавалась из поколения в поколение на протяжении веков и не утратила своей актуальности и сегодня. История «Урасима Таро» рассказывает о человеческих качествах — доброте, щедрости, уважении к родителям, знании ценности времени и о том, что каждое действие имеет последствия. Произведение содержит не только интересные истории, но и глубокий философский смысл. В частности, очень впечатляюще изображены концепция времени в человеческой жизни, ответственность человека за свой выбор, награда за доброе действие. В этой статье будет подробно рассмотрено содержание истории «Урасима Таро», проанализирована её огромная ценность и жизненные уроки.*

Ключевые слова: История, легенда, произведение, рассказ, человек, люди, время, жизнь

Abstract: *Each nation has its own tales and legends. These tales reflect the worldview of the people, their attitude to life, and their understanding of good and evil. The story of*

“Urashima Taro”, one of the famous tales of the Japanese people, is one of such works with deep meaning. This story has been passed down from generation to generation for centuries and has not lost its relevance today. The story of “Urashima Taro” tells about human qualities - kindness, generosity, respect for parents, knowing the value of time, and the fact that every action has consequences. The work contains not only interesting stories, but also a deep philosophical meaning. In particular, the concept of time in human life, a person’s responsibility for his own choices, the reward for good and its consequences are very impressively depicted. This article will extensively cover the content of the story of “Urashima Taro” and analyze its educational value and life lessons.

Keywords: Story, legend, work, tale, man, people, time, life

Qadim zamonlarda Yaponiyaning dengiz bo'yidagi kichikgina qishloqlaridan birida Urashima Taro ismli yigit yashagan. U oddiy baliqchi bo'lib, kun bo'yi dengizga chiqib baliq tutar, topgan rizqi bilan ota-onasini boqardi. Urashima Taro juda kamtar, mehribon va pok niyatli inson edi. U hech qachon birovga yomonlik qilmas, tirik jonlarga ozor yetkazishni gunoh deb bilardi.

Bir kuni Urashima Taro odatdagidek dengiz bo'yida yurganida bolalar bir joyga to'planib, shovqin ko'tarayotganini ko'rdi. Yaqinroq borgach, ularning kichkina toshbaqani ushlab olib, unga ozor berayotganini ko'rdi. Bolalar toshbaqani yerga urib, tayoq bilan turtib, uni masxara qilayotgan edilar. Buni ko'rgan Urashima Taroga juda og'ir botdi.

U bolalarga: — Tirik jonzotga ozor berish gunoh, uni qo'yib yuboringlar! — deb nasihat qildi.

So'ngra u toshbaqani qo'liga olib, muloyimlik bilan dengizga qo'yib yubordi. Toshbaqa suvga tushgach, go'yo minnatdor bo'lgandek, bir zumga boshini chiqarib qaradi va asta-sekin suv tubiga sho'ng'ib ketdi. Urashima Taro esa bu ishini oddiy yaxshilik deb bilib, uyiga qaytdi.

Oradan ikki-uch yil o'tdi. Bir kuni Urashima Taro yana dengizga baliq ovlash uchun chiqdi. To'satdan dengiz yuzasidan kimdir uning ismini chaqirdi: — Urashima! Urashima!

U hayron bo'lib qarasa, ulkan toshbaqa uning qayig'iga yaqinlashib kelayotgan edi. Toshbaqa tilga kirib: — Men sen ilgari qutqargan toshbaqaman. Sening yaxshiligingni unutmadim. Seni dengiz tubidagi Ajdar qasriga mehmon qilmoqchiman, — dedi.

Urashima Taro hayratga tushdi, ammo rozilik bildirdi. Toshbaqa uni orqasiga mindirib, dengiz tubiga sho'ng'idi. Suv osti olami nihoyatda go'zal edi: rang-barang baliqlar, marjon toshlar, nur taratib turgan suv o'tlari – hammasi ertaknamo manzarani eslatardi.

Ular tez orada Ajdar qasriga yetib kelishdi. Qasr juda ulug'vor, devorlari oltin va marjonlardan yasalgan edi. Qasr ichida esa go'zal malika yashar edi. Malika Urashima Taroni xushnudlik bilan kutib olib, unga mehmondo'stlik ko'rsatdi.

Urashima Taro qasrda nihoyatda baxtli kunlarni o'tkazdi. Har kuni musiqa, raqs, mazali taomlar, quvonchli suhbatlar bilan o'tar edi. U vaqt qanday o'tayotganini ham sezmay qoldi. Ammo bir muddatdan so'ng uning yuragida ota-onasiga bo'lgan sog'inch uyg'ondi. U ularni ko'rishni, ahvolidan xabar olishni istadi.

U bu istagini malikaga aytgach, malika biroz xafa bo'ldi, ammo unga to'sqinlik qilmadi. Ketishidan oldin unga bir quti berib dedi: — Bu qutini o'zing bilan olib ket. Ammo iltimos, hech qachon ochma. Agar ochsang, afsuslanasan.

Urashima Taro va'dani qabul qilib, qutini olib yo'lga chiqdi. Toshbaqa uni yana dengiz yuziga olib chiqdi.

Ammo qirg'oqqa chiqqach, Urashima Taroni dahshatli manzara kutib turardi. Qishloq butunlay o'zgargan, uylar boshqa, odamlar begona edi. U ota-onasini izlab yurdi, lekin hech kim ularni tanimadi. Ma'lum bo'lishicha, Urashima Taro yo'q bo'lgan paytda yer yuzida yuz yillar o'tib ketgan edi. U yolg'izlik va iztirob ichida qolib ketdi. Shu payt u malika bergan qutini esladi. Oxiri chiday olmay qutini ochdi. Quti ichidan oppoq tutun chiqdi va bir zumda Urashima Taro qarib, soch-soqoli oqarib ketgan cholga aylandi. Shu tariqa u o'z yoshligini, hayotini va vaqtini yo'qotdi.

“Hech qachon ochilmasin, degan sandiq — sabr sinovidir.” Bu Tamatebako (sehrli sandiq) g'oyasini ifodalaydi. Sabr va va'dagasodiqlik — hikoyaning asosiy g'oyasi. Ya'ni inson sabr ortidan ba'zida baxtga ba'zida esa kulfatga ro'baro bo'ladi. ⁶²Asarda ham xuddi shunga o'xshash vaziyat tasvirlanmoqda.

²“Vaqt o'tadi, ammo inson qilgan tanlovi uning taqdirini belgilab qo'yadi.” Taro ham o'z tanlovi evaziga vaqtini boy berdi. Ota-onasini, bolaligini yo'qotdi. Urashimaning dengiz ostida qisqa vaqt yashab, yerdayuz yillar o'tib ketgani shu g'oya bilan bog'liq. ⁶³

“Urashima Taro” hikoyasi juda chuqur ma'noga ega bo'lib, u inson hayotidagi eng muhim haqiqatlarni ochib beradi. Avvalo, bu asar ezgulik hech qachon bejavob qolmasligini ko'rsatadi. Urashima Taroga qilingan yaxshilik evaziga katta mukofot berildi, ammo u vaqt qonunlariga bo'ysunishga majbur bo'ldi. Asar shuni ham o'rgatadiki, vaqt — eng qimmat boylik. Uni hech kim ortga qaytara olmaydi. Inson hayotidagi har bir lahza qadrli bo'lib, uni behuda o'tkazmaslik lozim. Urashima Taro vaqtning qadriga yetmagani sababli hamma narsasidan ayrildi.

⁶² Otogi-zōshi (御伽草子)

⁶³ Konjaku Monogatari-shū (今昔物語集)

Shuningdek, bu hikoya ota-onaning qadrini bilish, va'daga sodiq bo'lish, sabrli bo'lish kabi fazilatlarni targ'ib qiladi. Malikaning ogohlantirishiga quloq solmagan Urashima Taro oxir-oqibat afsusda qoldi. Bu esa inson har bir qarorni o'ylab, oqibatini hisoblab qabul qilishi kerakligini anglatadi.

Xulosa o'rnida O'tkir xoshimovning quyidagi so'zlarini keltirsak ham bo'ladi.

“Taqrir degan gapni odamlar o'zini yupatish uchun o'ylab topgan bo'lsa kerak. Boshimizga o'g'ir tashvish tushsa uning oqibatini ko'ramiz-u, sababini surishtirib o'tirmaymiz. Qismatdan nolib qo'yaqolamiz. Ko'pdan buyon xuddi shu qismat izimizdan quvib yurganini, uni o'zimiz ergashtirib yurganimizni bo'ynimizga olishdan qo'rqamiz.” (“Bahor qaytmaydi” O'tkir Hoshimov)

“Urashima Taro” hikoyasi nafaqat qiziqarli ertak, balki hayot uchun katta sa boqdir. U bizni yaxshilik qilishga, vaqtni qadrlashga, ota-onani e'zozlashga va har bir qarorning oqibatini unutmaslikka o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. “Japanese stories for language learners”, Anne McNulty&Eriko Sato, 2012
2. Konjaku Monogatari-shū(今昔物語集)
3. Otogi-zōshi (御伽草子)